

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida
“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi bo‘yicha
2023-yilning II choragi yakuni yuzasidan
TAHLILIIY MA’LUMOT

Davlat dasturining uchinchi ustuvor yo‘nalishi - **milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash** bo‘yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish xajmini 1,4 barobar oshirish (**22-maqсад**) maqsadida Navoiydagi Pistali konida 4 million tonna oltin rudasini qayta ishlash majmuasining qurilishini yakunlash (Respublika davlat dasturi 44-band) vazifasi belgilandi.

Dastur ijrosini ta’minlash maqsadida kombinat tomonidan chora-tadbirlar dasturi hamda nazorat rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi (07.03.2023-y.), Dasturda “NKMK” AJ berilgan topshiriq doirasida:

Dastur doirasida joriy yil **yanvar-iyun** oylarida:

- “NKMK” AJ 6-GMZ uchun kon texnikalari bosqichma-bosqich yetkazib berildi, shuningdek 6-GMZning 1-tegirmon blogi to‘liq ishga tushirildi;

- Nimstansiyada quvvati 40 MVA bo‘lgan ikki dona transformatorlar o‘rnatildi, kuch elektr qurilmalari qurilish maydoniga keltirildi va to‘liq ishga tushirildi;

- Dehibaland qo‘rg‘onidan – “Pistali” konigacha 57 km uzunligidagi 220kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmog‘i to‘liq qurib ishga tusurildi.

- “Ximiya” TES-PSdan – Dehibaland qo‘rg‘onigacha 45,0 km uzulikdagi 220kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmog‘i to‘liq qurib ishga tushirildi;

- Qurilish ishlar tarmoq jadvaliga binoan davom ettirilmoqda;

Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni kupaytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish (**22-maqсад**) maqsadida Iqtisodiyotni, shu jumladan sanoatning yetakchi tarmoqlarini yanada liberallashtirish xamda transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish (Respublika Davlat dasturining 79-bandi) vazifasi belgilandi.

Dastur doirasida joriy yil **yanvar-iyun** oylarida:

2023-2026-yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ESG (Environment, Social, Governance)ni joriy etish, bunda atrof muhit, ijtimoiy omillar va korporativ boshqaruv omillari (ESG omillari), shuningdek, barqaror rivojlanish masalalari bilan bog‘lik omillarni hisobga olish masalalarini jamiyatlar boshqaruv organlarida ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish. Bunda, xalqaro moliya institutlarini jalb qilgan holda quyidagi korxonalarda ESGni joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023-yilda quyidagi vazifalar amalga oshirildi va bajarilishi rejalashtirilgan:

ESG va sanoat xavfsizligi.

Bajarildi:

- “NKMK” AJ faoliyatini (RGMPs, ICMC) xalqaro tamoyillarga muvofiqlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning yo‘l xaritasini shakllantirish bo‘yicha ishlarning birinchi bosqichi yakunlandi. Birinchi bosqich yakunlari bo‘yicha Hisobot tayyorlandi;

- “Yo‘l xaritasi”ni shakllantirish bo‘yicha birinchi bosqich natijalari xalqaro kreditor banklari sindikati tomonidan kredit shartnomasi shartlaridan biri bajarilishi sifatida qabul qilindi;

- Ish joylarida mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishini tekshirishning yangi dasturi, har bir tekshiruv bo‘yicha tegishli nazorat varaqlari to‘ldirilgan holda joriy etildi.

- Sanoat xavfsizligi sohasida xalqaro tajribaga ega xodim jalb qilindi;

- Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi, ekologiya bo‘yicha mutaxassislarning bo‘ysunish va javobgarlik tizimlari o‘zgartirildi;

- Ishlab chiqarishdagi travmatik hodisalarni bartaraf etish, ularning takrorlanishini, boshqa ishlab chiqarish maydonlariga tarqalishining oldini olish maqsadida travmatik hodisalarning yashirin sabablarini tekshirish jarayoni tatbiq etildi va amalga oshirilmoqda.

Rejalashtirilgan:

- “NKMK” AJ faoliyatini (RGMPs, ICMC) xalqaro tamoyillarga muvofiqlashtirish bo‘yicha yo‘l xaritasini shakllantirishning ikkinchi bosqichi bo‘yicha ishlarni bajarish;

- “Yo‘l xaritasi” bosqichlarini batafsilroq bayon qilish, tegishli rejalarni ishlab chiqish va ularni ishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirish:

- Mehnat va salomatlik muhofazasi;

- Atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilish;

- Biologik xilma-xillik, yerdan foydalanish va konlarning yopilishi;

- Suv-energetika resurslaridan foydalanish va iqlim o‘zgarishi.